

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallariga ishga qabul qilinayotgan  
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha  
YO‘RIQNOMA**

**I bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Yo‘riqnoma “O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallariga (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o‘tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnomaning maqsadlari:

nomzod tomonidan taqdim etilgan o‘zi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma‘lumotlarni tekshirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga muvofiq halol va sifatli amalga oshirishga qodir jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishilishini ta‘minlash;

Jamiyatda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shuningdek ularni ishga olish Jamiyat uchun obro‘, korrupsiyaga oid yoki boshqa xatarlarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xatarini minimallashtirish.

3. Ushbu yo‘riqnoma ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**II bob. Asosiy tushunchalar**

4. Ushbu Yo‘riqnoma maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**korrupsiyaviy xarakterliklar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy

manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**nomzod** – Jamiyatning bo'sh ish o'rni talablariga javob beruvchi, vakant ish joyiga tanlab olingan jismoniy shaxs.

**noqonuniy foyda** – va'da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk, yoki mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

**yaqin qarindoshlar** – ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

### **III bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari**

5. Xodimlar bilan ishlash departamenti va Komplayens nazorat bo'limi nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

6. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha qabul qilingan nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladi.

7. Agar nomzodlarni tanlab olish Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi ishtiroksiz amalga oshirilsa, u holda ishga qabul qilinayotgan nomzod professional tanlov va (yoki) sinov muvaffaqiyatli o'tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasdan avval tekshiriladi.

8. Nomzodni tekshirish 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

9. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish xolis sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lsa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatga cho'zilishi mumkin.

### **IV bob. Tekshirish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish**

10. Nomzodni tekshirishni amalga oshiradigan Xodimlar bilan ishlash departamenti va Komplayens nazorat departamenti xodimlariga (keyingi o'rinlarda – Ijrochi) tekshiruvni o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;

nomzod tomonidan Jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq shaklda to‘ldirilgan va imzolangan deklaratsiya nusxasi.

11. Ma‘lumotnoma olinayotganda to‘ldirilmagan bandlar mavjud bo‘lsa, Ijrochi nomzoddan yetmayotgan ma‘lumotlarni so‘rab olishi mumkin.

12. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha tushuntirish va qo‘shimchalarni so‘rab olishga haqli.

13. Nomzod so‘ralayotgan hujjatlar yoki ma‘lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda nomzodni tekshirish ochiq foydalanuvdagi va Ijrochi tasarrufidagi ma‘lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so‘rov yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda Ijrochi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli qaydni amalga oshiradi.

14. Nomzodning O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko‘zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uning ishga joylashishini rad etish uchun sabab bo‘lmaydi.

#### **V bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari**

15. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma‘lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan yoki rasmiy so‘rovlar yuborish orqali olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish va ishlash orqali amalga oshiriladi.

16. Ma‘lumotlarni yig‘ish ishga joylashayotgan nomzod haqidagi umumiy va xolis fikrni shakllantirish, nomzoddan olingan, jumladan ma‘lumotnomada qayd etilgan, nomzodning <https://vakansy.argos.uz> saytidagi shaxsiy profildagi hujjatlar va ma‘lumotlar ishonchligini baholash, shuningdek o‘zi haqidagi ma‘lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish belgilari yo‘qligini tahlil qilish uchun barcha ochiq axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

17. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va Tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o‘quv muassasalari va h.k larga taqdim etilgan ma‘lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so‘rov yuborish mumkin.

18. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga so‘rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.

19. Nomzod haqidagi ma‘lumotlarni tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan foydalanish mumkin:

Davlat xizmatlari agentligining yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar ma‘lumotlarini tekshirish bo‘yicha platformasi – [https://fo.birdarcha.uz/s/ru\\_landing](https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing)

Korxonalar va Jamiyatlarning yagona davlat reestri (KTYADR) – <https://stat.uz/ru/uslugi-1/svedeniya-iz-egrpo>

Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali – <https://my.soliq.uz/main/?lang=ru>

O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlari portali - <https://data.gov.uz/ru>

Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>

Ijro hujjatlari bo‘yicha qarzdorlarning ma’lumotlar bazasi - <https://mib.uz>

Axborot qidiruv tizimlari (masalan, Google, Yandex va h.k.) va h.k.

Ushbu ro‘yxat zarur bo‘lganda o‘zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin bo‘lgan manbalarning taxminiy ro‘yxatini ifodalaydi.

## **VI bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshiruvini o‘tkazish yo‘nalishlari**

**20.** Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati va (yoki) iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma‘muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘qligi;

sud organlari tomonidan qo‘yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo‘qligi – rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari to‘g‘risida ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma’lumotlar yo‘qligi;

avvalgi ish joylaridan salbiy tavsianomalar yo‘qligi;

nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari yo‘qligi;

nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo‘qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).

**21.** Qayd etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy. Bunda tekshiruv yo‘nalishlari ro‘yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

## **VII bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari**

**22.** Nomzodni tekshiruvini o‘tkazish natijalari bo‘yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilgani to‘g‘risidagi hisobot tuzilib (ushbu Yo‘riqnomani 1-ilova shakli bo‘yicha), mazkur hisobot Xodimlar bilan ishlash departamentida saqlanadi. O‘tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma’lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (ushbu Yo‘riqnomaga 2-ilova)ga kiritiladi.

**23.** Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti Jamiyatdagi Nomzodlarni tekshirish reestriga qiritiladigan ma’lumotlarni yig‘ish va ushbu Reestrni aktual holda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

24. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning 3-bo'limidagi 3.1., 3.2., 3.3.- yoki 3.4.-bandlari savollariga bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi.

3.5.- yoki 3.6.-bandlaridagi savollardan biriga bittasiga bo'lsa ham bir va undan ortiq xavf indikatorlari ("Ha" javoblari) mavjud bo'lgan taqdirda, tekshiruv o'tkazayotgan shaxs vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha baholaydi.

25. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkoni bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

26. Salbiy xulosa berilgan taqdirda nomzodni, shu jumladan hududiy va tarkibiy bo'linmalarga ishga qabul qilish Jamiyat Boshqaruvi raisi qaroriga ko'ra nomzod ishga olinayotgan bo'linma rahbariyati tomonidan mazkur yo'nalishni nazorat qiluvchi Boshqaruv raisi o'rinbosari va Xodimlar bilan ishlash departamenti bosh menejeri bilan kelishilgan holda tuzilgan xizmat ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ma'lumotnomasiga Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot nusxasi ilova qilinadi.

27. Tekshiruv natijalari bo'yicha korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etilgan nomzod ishga olingan taqdirda xodimning rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi.

### **VIII bob. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari**

28. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari (jumladan, Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot va boshqa hamroh hujjatlar) maxfiy hisoblanadi va ishga joylashayotgan nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan Jamiyat xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

29. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (ushbu Yo'riqnomaga 1-ilova)dan faqatgina Ijrochilar foydalanishi mumkin.

30. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini nazorat qiluvchi rahbar o'rinbosarining yozma roziligini olishi lozim.

31. Nomzod ishga joylashtirilgan taqdirda Tekshiruv o'tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig'ma jildida saqlanishi shart.

32. Tekshiruv o'tkazilgani to'g'risidagi hisobot nusxasi, shuningdek hisobotdagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko'chirma, vakolatli muassasalarga yuborilgan so'rovlar va ularga olingan javoblar va h.k)

Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan kamida 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

**33.** Jamiyatga ishga joylasha olmagan nomzodlarni tekshirish natijalari uch yil davomida saqlanadi.

**34.** Agar nomzod Jamiyatda ishlashga so'ngi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng ikki yil davomida da'vogar bo'lsa, qayta tekshiruv talab etilmaydi (manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tekshiruv bundan mustasno). Agar so'ngi tekshiruv o'tkazilganiga ikki yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa, nomzod qayta tekshirilishi lozim.

### **IX bob. Yakuniy qoidalar**

**35.** Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

**36.** Mazkur Yo'riqnoma qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

«O‘zagrosug‘urta» AJning Boshqaruvi,  
filiallariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni  
tekshirish bo‘yicha  
yo‘riqnomaga 1-ilova

### Nomzod tekshirilgani to‘g‘risidagi hisobot

1. Asosiy ma‘lumotlar			
1.1	Nomzodning FISH		
1.2	Tug‘ilgan sanasi		
1.3	Bo‘sh lavozim nomi		
1.4	Bo‘linma		
1.5	Bog‘lanish uchun telefon		
1.6	El.pochta manzili		
2. Ish tajribasi			
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlari		
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy fikrlar mavjudligi		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3. Tekshiruv natijalari			
3.1	Ushbu Yo‘riqnomaning 10-bandida ko‘zda tutilgan hujjatlarning to‘liq paketi olindimi? («Yo‘q» javobi faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq ishga qabul qilish vaqtida talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Yetishmayotgan hujjat(lar):</p> <p>Ularning yo‘qligi sababi(lari):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3.2	Nomzoddan olingan, jumladan ma‘lumotnomada ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning ishonchlilik alomatlari va u tomonidan o‘zi haqidagi ayrim ma‘lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari yo‘qligi		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>Izoh(lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		
3.3	Nomzodda tugatilmagan sudlanish jarayoni va (yoki) iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma‘muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari		
	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> <p>(agar javob ijobiy bo‘lsa, asosini ko‘rsating)</p> <p>Izoh(lar):</p> <p>Manba(lar):</p>	Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q		

	mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi		
3.4	Sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo'qligi (rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.5	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari mavjudligi:	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
	1) nomzodning yaqin qarindoshlari Jamiyatning amaldagi xodimi hisoblanadi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlarini ko'rsating) Izoh(lar): Manba(lar):	
	2) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimni egallab turgan bo'lsa yoki potentsial ravishda Jamiyat kontragentlari bo'lishi mumkin bo'lgan Jamiyatlar boshqaruv organlari tarkibiga kirs	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), Jamiyat nomi, lavozimi) Izoh(lar): Manba(lar):	
	3) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday Jamiyatning ommaviy muomalada bo'lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoxud Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarning 5% va undan ortig'iga egalik qilsa yoki Jamiyatlar faoliyati natijalarida shaxsiy manfaatdorligi bo'lsa (jumladan, investitsiyalar kiritish orqali)	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(agar javob ijobiy bo'lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), Jamiyat nomi, lavozimi) Izoh(lar): Manba(lar):	
	4) Boshqa alomatlar	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.6	Ish joyiga nomzod yoki uning yaqin qarindoshlarining korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.7	Nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	





«O‘zagrosug‘urta» AJning Boshqaruvi,  
filiallariga ishga qabul qilinayotgan  
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha  
yo‘riqnomaga 2-ilova

**Jamiyatga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reestri**

T/r	Nomzodning FISH	Bo'sh lavozim nomi	Markaziy apparatdagi yoki hududiy va tarkibiy bo'linma nomi	Tekshiruv ijrochisi, FISH	Nomzodni tekshirish bo'yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (musbat / manfiy / aniqlangan xatarlar)	Tekshiruv natijasini asoslovchi qisqa izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1							
2							
3							
4							
5							
...							